



“Олам нурга тўлсин сен билан,
Наврўз!”



IJODIY PARVOZ

2024-yil mart № 3 (130) dsmi.uz nashriyot@dsmi.uz t.me/dsmi

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY, ILMIY, IJTIMOY GAZETASI

Yoshlik – inson umrining bahori, uning Navro'z bayramidir. Yoshlik – odamzod kamolot osmonida yulduzdek charaqlaydigan bebaho davrdir.

Yangi O'zbekiston farzandlari – yuzlab, minglab o'g'il-qizlarimiz turli sohalaridagi yutuqlari bilan bu fikrni amalda isbotlamoqdalar. Ularning kuch-g'ayrati, ezgu harakatlariga qanot berish maqsadida biz joriy yilni mamlakatimizda “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili” deb e'lon qildik.

Chunki doimo izlanish, tashabbus va yangilikka, o'zligini namoyon etishga intilish yoshlikva tadbirkorlikka xos fazilatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat MIRZIYOYEVning
Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan
tantanali marosimdagi nutqidani



Muhammad YUSUF,
O'zbekiston xalq shoiri

Ko'klamoyim

Sochinda oq, men bahordan o'tindim:
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.
Qor qo'ynida seni qo'mas o'kindim,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Ko'nglinga ko'k binafshalar sochilsin,
Kokitiga tolpokukdan soch ilsi,
Boychechakka borar yo'llar ochilsin
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Fast boshi, ham oxiri o'zingdan,
Majnunlarning yo'ldoshi ham o'zingdan.
Laytlarning sirdoshi ham o'zingdan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Kel-da, endi sog'intirmay odamni,
Sen yo'g'ingda bir g'am bosdi yelkamni,
Qorlar kurab ko'mib keldim otamni...
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Ko'king bilan kiyintiray dalamni,
Oyoqyalang suyuntiray bolamni,
O'zing olgin ko'ksimdagi alamni,
Ko'klamoyim ko'kingdan ber bir chindim.

Ginam yo'qdir kuzda ketgan oqqushdan,
Tymanmasin qayta eshik qoqishdan.
Qumri bilan birga chiqdik bu qishdan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Jon ustiga asrab yuray ko'kni men,
To'yib-to'yib ko'zga suray ko'kni men.
Yana senga yetamanmi-yo'qmi men,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Dil yagrasin dala dashting yasanib,
Yalpizlaring suv bo'yiga yastanib,
Ikki misra bayt biray bir maqtanib,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim!..



Barcha yurtdoshlarimizni
uyg'onish va yosharish,
poklanish va yangilanish
ayyomi Navro'z bayrami
munosabati bilan chin
qalbidan muborakbod
etaman!

Ezgu tilaklarim avvalida
siz va yaqinlaringizga
mustahkam salomatlik,
xonadoningizga qut-
baraka,
maqsadlaringizda esa
buyuk
muvaffaqiyatlarga
erishishingizni
tilakdoshman!

Navro'z ayyomi muborak
bo'lsin!

HURMAT ILA O'ZBEKISTON
DAVLAT SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI
REKTORI V.B. ELDOR
SHERMANOV

Bugungi
sonda:

Olam nurga to'lsin
sen bilan, Navro'z

2

Yangi O'zbekiston
kelajagi –
yoshlar qo'lida

Rejissor uslubining
filmda nomoyon
bo'lishi

5

BUYUK AJDODLARIMIZ
ASARLARNING AHAMIYATI

4

Kino SAN'ATMI yoki SANOAT?

7

Eldor SHERMONOV,
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI REKTORI V.B.,
PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA
FALSAFA DOKTORI (PhD), PROFESSOR

Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z

Bahor o'lkamizda samo bag'rida hush nasimlar esishi, iliq yellar yelishi, mayin shabadalarning o'ynoqi tafti bilan boshlanadi. Bundan zamin bag'riga ham bir ilqlik inadi. Ana shunday paytda qahraton qishning qorlari orasidan nafis chuchmomalar bosh ko'taradi. U bahorning ilk elchisiga, xabarchisiga aylanadi.



Navro'z – tabiatning uyg'onish, yasharish fasli. Ona tabiat asta-sekinlik bilan uyg'onar ekan, bulutlar orasidan mo'ralagan oftobning iliq nurlari tufayli dala-dashtlarda, bog'-rog'larda, bepoyon cho'llarda, umuman, zamin bag'rida yashillik bo'y ko'rsatadi. Shoshqaloq yomg'irlar zaminni to'yintiradi, qish uyqusidan uyg'ongan dov-daraxtlarni yuvintiradi. Kurtaklarga jon kiradi. Bog'lar yangi tushgan kelinchakdek go'zallik qo'yniga kiradi.

Buloqlarning suvlarida odatdagidan ko'ra jo'shqinlik paydo bo'ldi. Kanallar, anhorlar, ariqlar to'lib-toshib oqadi... Yurtimizda bahor ana shunday boshlanadi. Borliq uyg'onish pallasiga kiradi. Qolaversa tabiatning yana bir mo'jizasi ro'y beradi – tun va kun tenglashadi. Hayotda yorug'lik va zulmat o'rtasida tenglik yuzaga keladi. Ajdodlarimiz olis o'tmishdan boshlab hayotda bunday muvozanatning yuzaga kelishini yaxshi bilganlar va unga Navro'z – yangi kun deb nom berganlar. Yangi kun esa, Yangi yilning boshi hisoblangan. Shu sababli Navro'z sharq xalqlarining yangi yil bayramiga aylangan. Bu bayramga bag'ishlanib sayllar o'tkazilgan, kuy-qo'shiqlar to'qilgan, turfa taomlar tayyorlangan.

Navro'z har qanday mafkura va siyosatdan holi bo'lib, el-yurt ruhini baland ko'tarishda va mustahkamlashda, xalqni istiqboldagi buyuk maqsadlar tomon safarbar etishda, mamlakatimizda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yo'naltirishda muhim omillardan biri sifatida barchaga beminnat xizmat qilib kelmoqda.

Davlatimiz rahbarining **“2024-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”gi qarorida “Olam nurga to'lsin sen bilan, Navro'z” degan bosh g'oya asosida Navro'zni umumxalq sayllari shaklida ko'tarinki ruhda va yuqori darajada nishonlash belgilandi. Unda “bayramning tarixi, uni nishonlash bilan bog'liq urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarimizning mohiyati va ahamiyatini keng yoritish”** masalasi qo'yildi.

Xo'sh, ushbu kunning Navro'zga aylanish sababi nimada? U nima uchun bayram sifatida ulug'lanadi? Navro'z qaysi davrlardan boshlab bayram qilingan? Bu kabi savollarga ajdodlarimiz – ulug' mutafakkirlar, allomalar asarlarida yetarlicha javob berishgan.

Umar Hayyom “Navro'znoma” asarida: *“Oftob isfandarmuz oyida oxirgi Hut burjiga yetib keladi. Kayumars vaqtini o'n ikki bo'lakka bo'ldi va yil hisobining boshlanishini belgiladi. Bu orada tarixdan bir ming qirq yil o'tdi va oftob farvardinning birinchisida to'qqizinchi burjga kirdi. Jamshid podsholigining to'rt yuz yigirma birinchi yili o'tgach, bu davr tugadi va quyosh o'z farvardinida Hamalning boshiga qaytib keldi. Shunday qilib dunyo muvozanatga keldi, ya'ni kun bilan tun tenglashdi. Biz eslatgan bu kunda u bayram tashkil qildi, unga “Navro'z” deb nom berdi. Odamlarga har yili farvardin kelganda bayram qilishni va o'sha kunni Yangi yil (boshi) deb hisoblashni, quyosh turguncha Navro'z ham barqaror bo'lsin, deb buyurdi”.*

Abu Rayhon Beruniy “Osor ul-boqiya” asarida *“Jamshiddin keyingi podshohlar farvardin mohning barcha kunlarini bayramga aylantirib, ularni olti qismga bo'ldilar. Birinchi besh kun podshohlar uchun, ikkinchisi ulug' kishilar uchun, uchinchisi podshohlarning g'ulomlari uchun, to'rtinchisi xizmatkorlari uchun, beshinchisi xalq ommasini uchun, oltinchisi cho'ponlar uchun bayram qilib belgilandi”, deb yozadi. Asarda yana “Farvardin mohning oltinchi kuni katta Navro'z bayrami. Aytishlaricha, shu kuni Alloh mahluqotni yaratishdan forig' bo'lgan, Mushtariy shu kuni yaratilgan va bu kunning eng saodatli vaqti Mushtariy soatidir. Shu kuni Zardushtning Xudoga munojaat etish navbati yetgan, Kayxusrov havoga ko'tarilgan, Yerda yashovchilarga shu kuni saodatlar taqsim etilgan. Shuning uchun xalqlar bu kunni “Umid kuni” deb ataydilar” degan rivoyatni ham keltiradi. Allomaning yozishicha, Navro'z kuni yetti xil don ekilgan, ularning unib chiqishiga qarab, shu yilgi g'allalar hosilining to'liq yoki puch bo'lishi aniqlangan. “Bundan tashqari, Navro'z kuni Xaruzo nomli suv farishtasi kuni ham hisoblangan. Shu sabab odamlar oqib turgan suvlardan idishlarda suv olib, umrlari barakatli va ofatlardan holi bo'lishi uchun ustlaridan suv quyganlar. Navro'zda suv sepish marosimi ana shunday paydo bo'lgan”, deb ma'lumot beradi alloma.*

Navro'z yurtimizga tabiatning uyg'onishi, jonlanishi, yangilanishi, boshqacha

aytganda, borliqning go'zal, mas'um qiyofa kasb etishi bilan kirib kelgan. Tabiatdagi go'zallik bayramga alohida shukuh bag'ishlagan. Shu sababli barcha shoirlar bu bayramni ulug'lab jo'shqin misralarda madh etganlar. Agar Firdavsiy bu haqda:

**Yil boshi Hurmuzu edi farvardin,
Dilda na g'am qoldi, na adovat-kin.
Bu baxtiyor kunni o'shandan buyon
Shohlardan yodgor deb bilurlar hamon,** – deb yozsa,

mutasavvuf shoir Fariddin Attor:

**Gul chehrasida nasimi Navro'z xushdir,
Gulshan aro ruxsori Dilafr'o'z xushdir,** – deya uni ulug'laydi.

Javonmard shoir Pahlavon Mahmud:

**Har bir kuni umringning yorug' yulduzdir,
Har kecha qadru har sahar Navro'zdir,** – deb otashin misralar bitsa,

ulug' mutafakkir Alisher Navoiy:

**Ey yuzung bog'i nasimida havoyi navro'z,
La'li tojing bo'lub ul bog'da bo'stonafro'z.
Zulfi ruxsor ila komimg'a meni yetkursang,
Har tuning qadr o'lubon, har kuning o'lsin navro'z,**

– deya hayotda Navro'zning abadiyligiga mengzaydi.

Navro'z hamma zamonlarda ijod ahlining manguilik mavzusiga aylangan. Birgina misol. “Abdulla Oripov”, deb nomlangan badiiy filmni hammamiz hayajon bilan ko'rganmiz. Ushbu filmda bir sahna bor. Unda qir-adirlarda Navro'zni nishonlayotgan xalqimizga nisbatan o'sha davr mulozimlarining munosabati aks ettirilgan, ya'ni sumalak qaynayotgan doshqozonga tuproq to'ldiriladi va ag'darib tashlanadi.

O'sha davr ruhini Xalq shoiri Abdulla Oripov shunday yozadi:



Ulug' allomaning ushbu bashoratlarini o'qir ekanmiz, bu yil hamaldan baliq yili boshlanishi va Navro'z payshanba kuni kirishini hisobga oladigan bo'lsak, yurtimiz va millatimiz, barcha xalqlar uchun 2024-yil xayrli va barokatli kelishidan dillarda quvonch uyg'onadi. Iloho, Navro'z – yilboshi, ulug' bayram yurtimizga yaxshiliklarni boshlab kelgan bo'lsin!

Olam nafas olgan havosan – Ayol!

2024-yil 7-mart kuni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida 8-mart – Xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi.

Tong chog'idan bayramona muhit hukm surib, oliygoh hovlisi, kirish yo'li bezatildi hamda institut jamoasi va Yoshlar Ittifoqi tashkiloti faollari ishtirokida ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar ko'tarinki kayfiyatda kutib olindi va o'quv teatrida "Olam nafas olgan havosan – ayol" deb nomlangan konsert dasturi o'tkazildi.

Konsertni Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Avazxon Tadjixanov hamda institut rektori v.b. Eldor Shermanov kirish so'zi bilan



ochib berib, munis va mehribon ayollar hamda go'zal va ilmga chanqoq qizlarni bayrami bilan tabrikлади.

Shuningdek, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'iro'tboy Sharipov tomonidan san'atshunoslik kafedrasida dotsenti Sabohat Hayitmatova, madaniyat va san'at menejmenti kafedrasida professori Manzura Yuldasheva hamda madaniyatshunoslik kafedrasida dotsenti Qunduzxon Nishonboyevaga yo'llangan bayram tabrigi o'qib eshittirildi hamda vazirlik faxriy yorliqlari topshirildi.

Bundan tashqari, folklor va etnografiya kafedrasida o'qituvchisi Kamola Toshmatova falsafa doktori (PhD) diplomi hamda madaniyat va san'at menejmenti kafedrasida dotsenti Dilafruz Yusupaliyevaga fan doktori ilmiy unvoni topshirildi.



Badiiy kechada xalq artistlari va xofizlari, el suygan san'atkorlar hamda iqtidorli talabalar tomonidan ayol siymosi ulug'langan kuy va qo'shiqlar ijro etildi. Konsert dasturi raqslarga ulanib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldi.

O'zDSMI Matbuot xizmati

Mehr-oqibat, do'stlik va hamjihatlik ayyomi

Bahor bayramlar fasli. Yurtimizning barcha hududlarida Navro'z shodiyonalari tantanalarga ulanmoqda, vodiylar va vohalarda sayillar, tadbirlar tashkil etilmoqda.

**BAXTIYOR SAMIYEV,
"MADANIYAT VA SAN'AT
MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
HAMDA BOSHQARISH" TA'LIM
YO'NALISHI 2-BOSQICH TALABASI**

Momolarimiz, onajonlarimiz bir bo'lishib, bahoriy taomlar bo'lmish, sumalak, halim, ko'k somsalar, chuchvaralar kabi milliy taomlar bilan dasturxon bezashsa, boshida do'ppi, engnida atlas ko'ylakli qizlarimiz xush-xursandchilik bilan onajonlarimizga qarashishmoqda. Chunki Navro'z ayyomi xalqimiz dunyoqarashini, turmush tarzi, o'ziga xos milliy an'analar va badiiy tafakkurning har bir yutug'idan kuch olib, asrlar davomida yanada to'lishib, yangilanib, kelayotgan umrboqiy shodiyonadir.

**Baland aylab quyoshga poya Navro'z,
Ko'tardi yer yuzidin soya Navro'z,
Kelib fayz-u nishot-u aysh birla,
Muhayyo qildi elga voya Navro'z!**

Muhammad Rizo Ogahiy "Navro'z" radifli g'azalidan

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 21-martdagi Navro'z umumxalq bayramidagi nutuqlarida xalqimizning ko'p asrlik ezgu

qadriyatlarini, uning orzu-intilishlarini o'zida mujassam etgan ushbu qutlug' ayyom mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elatlarga mansub barcha vatandoshlarimiz uchun umumxalq bayramiga aylangani, Navro'zi olamning ruhi va falsafasida mujassam bo'lgan yaxshilik va bag'rikenglik, ahillik va hamjihatlik, atrof-muhitni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash kabi olijanob g'oyalar Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan tarixiy o'zgarishlarning maqsad va mazmuniga to'la hamohangligi, hozirgi kunda jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik, do'stlik va birodarlik tuyg'ularini mustahkamlash, xalqimiz, avvalo, yosh avlodimiz qalbi va ongida Vatanimizning buguni va kelajagiga daxldorlik tuyg'usini kuchaytirishda Navro'z bayramining ahamiyati tobora ortib borayotgani ta'kidladilar. Yurt-boshimiz sharqona yangi yilning boshlanishi, tabiat uyg'onishining ramzi, asl milliy, eng ardoqli bayram bo'lmish Navro'zning yurtimizda mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, bag'rikenglik va bunyodkorlik, xayr, saxovat muhitini yanada mustahkamlash, yosh avlodni milliy an'analarimizga sadoqat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol topirishdagi o'rni va ta'siri tobora ortib borayotganini inobatga



olib, bu qutlug' ayyomni yuksak saviyada kutib olishimiz kerakligini aytib o'tdilar.


Bizning institutimizda ham bu yilgi "Navro'z" bayramini kutib olish uchun, o'zgacha, ko'tarinki ruhda ishlar olib borildi. Ayniqsa, 15-16-mart kunlari institutimizning rahbariyati, professor-o'qituvchilari va oliygohimizning barcha o'g'il-qiz talabalari "Hashar – elga yarashar" shiori ostida institutimizning barcha hududlarini keng ko'lamda obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etilib, tozalash ishlari olib borildi hamda kafedralarga birlashtirilgan hududlarda daraxtlar, gullar ekilib, daraxtlar oqlandi.

Bundan tashqari "Madaniyat va san'at menejmenti" kafedrasida o'qituvchilari tomonidan bir talabalarga "Olam sen bilan nurga to'lsin – Navro'z" mavzusida dars tashkil etildi. Professor-o'qituvchilarimiz tomonidan Navro'z ruhi va falsafasida aksini topgan mehramuruvvat, ahillik va totuvlik, yoshi ulug' insonlar, tabarruk otaxon va onaxonlarni har tomonlama e'zozlash va ulardan doimiy xabar olib turish,

ko'makka muhtoj insonlarga beg'araz yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish, bahor kelishi bilan hovllarimizda, ko'chalarda turli ko'chatlar va gullar ekish kerakligini biz talabalarga aytib o'tdi.

Umuman olganda yasharish va yangilanish, qut-baraka, obodlik va farovonlik ramzi bo'lmish Navro'z bayramida mahallalarda, shahar-qishloqlarda hasharlar, bo'lib o'tadigan sayillarga folklor guruhlari, badiiy havaskorlik jamoalari, dorbozlar, sirk artistlari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar, shuningdek, professional ijrochilar va iste'dodli estrada artistlarini keng jalb etish; sayil dasturlarini tayyorlashda xalq o'yinlari, folklor san'atining eng yaxshi namunalarini, el-yurt dilidan joy olgan urf-odatlar, ezgu tuyg'ularni tarannum etadigan kuy va qo'shiqlar, o'lan va laparlarga keng o'rin berish, bu xalqona milliy urf-odatlarimizni keng targ'ib qilishga, milliy madaniyatimiz va san'atimizni yuksaltirishga juda katta hissa qo'shadi. Shuning uchun har kunimiz "Navro'z" bo'lsin!





BUYUK AJDODLARIMIZ ASARLARINING AHAMIYATI

Istiqlol sharofati bilan buyuk siymolarning ruhlarini shod qilishda, bebaho meroslarini tartib etishda nashriyot, vaqtli matbuot va axborot vositalarining tutgan oʻrni va ahamiyati gʻoyat katta boʻldi. Buning boisi shundaki, xalqi yuz yillar mobaynida ozodlikni orzu qilgan Oʻzbekistonning chinakam mustaqillikni qoʻlga kiritishi Vatanimizda insoniy qadr-qimmat yuksak maqom kasb etdi, xalqimiz chashmalarining koʻzlari qaytadan ochildi, jamiyatimizni madaniy-maʼnaviy jihatdan yangilash ishlariga jiddiy kirishildi.

Shu maʼnoda aytadigan boʻlsak, mamlakatimiz ommaviy axborot vositalari xalqtarixi, madaniyati va maʼnaviyatini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan holda yoritishga, buyuk donishmand va mutafakkir zotlarni ulugʻlashga intilmoqda, bu esa haqqoniy, xolis xulosa chiqarishga imkon yaratmoqda. Bunda, ayniqsa fidoyi, zahmatkash, ijodkor ziyolilarning oʻrni katta boʻlmoqda.

Filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov ana shunday alloma ziyolilardan edi. Professor oʻzining koʻplab kitob va risolalari, suhbat va maqolalari bilan buyuk siymolar ruhini shod etgan. Asarlari saviyasi hamda salobati ila xalqimizning tafakkur olamini boyitishga katta hissa qoʻshgan desak mubolagʻa boʻlmaydi.

N.Komilov, avvalo, tasavvufshunos, navoiyshunos olim, Sharq falsafasini tinimsiz oʻrgangan donishmand, faylasuf, qolaversa, mutasavvuf zotlarning, ulugʻ allomalarning fors tilidagi asarlarini oʻzbekchaga qoyilmaqom darajada tarjima qilgan katta isteʼdod sohibi. Suhbatlardan birida N.Komilov: **“Men oilam, oʻgʻil-qizlarim, nabiralirim, doʻstlarim bilan suhbatlashishdan, ishxonada maʼlum ishlarni bajarishdan, qisqasi, hayotdan mamnun boʻlib yashayman. Ammo meni oʻziga sehraib olgan, hayolimni doimo charxlab turadigan, saboq beradigan Bedil, Navoiy, Jomiy, Saʼdiy Sheroziy, Xofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy kabi donishmandlar asarlarini qayta-qayta mutolaa qilganimda ular yaratgan maʼnaviy dunyodan oʻzgacha lazzatlanaman, huzur topaman”**, – degan edi.

Najmiddin Komilov ilm va badiiy ijodda taqqoslash, solishtirish uslubini koʻp qoʻllagan. Jumladan, “Ibn Sino va Dante” (1983) asarida oʻzbek olimlaridan birinchi boʻlib Sharq-u Gʻarbning adabiy aloqalarini davrlashtirdi. Mashhur italyan shoiri Dante Aligerining (1265-1321) “Ilohiy komediya” nomli asari tahliliga kirishganda, bu umuminsoniy qadriyat va

qarashlarning ildizlarini “Ming bir kecha”, “Kalila va Dimna”, “Sindbodnoma” singari Sharq durdonalari, qolaversa, “Tasavvuf” nomli ikki jildlik (1996, 1999) monografiya ijodining yuqori choʻqqisi boʻldi. Maʼlumki, tasavvuf ilmi sir-asrorlari haqida yozish uchun diniy va dunyoviy bilimlarni puxta egallash talab etiladi. Tasavvufni anglamasdan turib, milliy maʼnaviyat tarixi, Sharq falsafasi, adabiyoti va sanʼatini yaxshi oʻrganib boʻlmaydi. **“Tasavvuf, bu – Mutlaq ilohni tanish va sevis; avliyolar eʼtiqodidan tugʻilgan; pokiza axloq haqidagi ilmdir”**, deb yozadi N.Komilov.

Domla 90-yillarda Farididdin Attorning “Ilohiynoma”, Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniyy yoxud javonmardlik tariqati”, Shayx Aziziddin Nasafiyning “Zubdat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar qaymogi”) singari nodir asarlarini mahorat bilan oʻzbekchalashtirdi. 1994 yilda Farididdin Attorning “Ilohiynoma” asari tarjimasini. Bu shoh asarning tarkibida uch yuzdan ziyod ibratli hikoyat, tamsil va qissalar joylashgan.

Chindan ham, Vohid Rahimov yozganidek, ustoz Najmiddin Komilovda “Ilohiy ishq jozibasini” barq urib turadi. Darvoqe, N.Komilovning ilm-u ijodi ham, umri ham, xuddi maqolalarining sarlavhasi singari “Hikmat va ibrat” dostoni kabi.

Najmiddin Komilov birinchilardan boʻlib tasavvuf taʼlimotini keng oʻrganishni boshlab berdi, islom va tasavvuf olamining sardorlaridan boʻlib tanildi. Chor Rossiyasi va shoʻro mustamlakachiligi davrida zulmatda qolgan odamlar uchun tasavvuf ilm qanday zarur boʻlsa, bu ilm sarhadlarini oʻrganish komillik, ezgulik fazilatlarini rivojlantirish uchun ham shunday zarurligi tushuntirildi.

Olim tasavvuf komillikning bosh yoʻli ekanini bugungi avlodga tushuntirishni, avvalambor, Navoiy va Jomiy ijodi orqali amalga oshirdi. “Faqr nuri porlagan qalb” kitobining “Tavakkul talqini” boʻlimini tutar ekan, Najmiddin Komilov qalblarning quvvatiga bagʻishlangan Aisher Navoiy qasidalarining axloq bilan bogʻliq jihatlari tahlil qildi, oʻzi ham sheʼriy shu yoʻsinda sheʼrlar bitdi:

**Nafsu xirsga karam bilmasdan toki,
Ozodu xotirjam yashasak koshki!
Soʻffiyar iymoni nasib etsaydi,
Najmiddin oʻz murodiga yetsaydi.**

Alalxusus, his-tuygʻular ichra ilm tili manzillarida qoʻnim topmagan olim ilhom toʻlqinida sheʼrlar bitib, shoirlik maqomiga koʻtariladi. Darvoqe, bu haqda uning oʻzi shunday yozadi: **“Tasavvuf gʻoyalarini aqliy-nazariy mushoxadadan koʻra xissiy-obrazli tafakkur bilan**

tushuntirish oson. Voqean, tasavvuf, aql bilan dunyoni bilish mumkinki, mantiqiy tafakkurni tan olmaydi, uning asosiy quroli shavqi tabiiy, yaʼni institut Maʼrifat koʻngilga nur boʻlib qoʻyiladi, deydi ahli dil. Shunga oʻxshash shoirlik ham gʻoyibdan keladigan neʼmat, pokiza qalb ilhomidan tutiladigan koʻngil kalomi. Toki dil ilohiy darddan gʻulʻgʻulaga kelmasa, noqislikdan larzaga tushib, isyon qilmasa, ilohiy lison – sheʼr tugʻilmaydi”.

Shunday qilib, zahmatkash ijodkorning qasidalar ruhi bilan yoʻgʻrilgan sheʼrlari ham kitob sahifalaridan oʻrin egalladi. Yana uning fors-tojik adabiyotining nodir namunasi hisoblangan “Devoni foniyy”, “Sittai zaruriya” qasidalari turkumidan “Nasimul xuld” (jannat shabadasi) qasidasini yuksak mahorat bilan qilgan tarjimasini ham shular jumlasidandir.

Alisher Navoiy ijodini chuqur oʻrgangan olim, uning asarlarini teran anglash va targʻib etish hozirgi zamonning muhim yumushlaridan biri ekanligini, Navoiy ijodiga yaqinlashib borish uchun uning asarlarini sevib mutolaa qilish, til oʻrganish, lugʻat titkilash, tadqiqotlarni koʻpaytirish, mukammal izohli lugʻatlar, tabdiliy, sharhli nashrlarni koʻpaytirish kabi navbatdagi vazifalarni ham dadil koʻtarib chiqdi.

Najmiddin Komilovning yuqoridagi kabi kashfiyotlari, fidokorona intilish va izlanishlari samarasi oʻlaroq, Aisher Navoiy ijodini maʼnolar ummonini, bebaho xazinani tadqiqi tahlil etishga bagʻishlangan “Xizr chashmasi” kitobi dunyo yuzini koʻrdi. Shu choqqacha xazrat Navoiy ijodi butun

mukammalligi bilan, yaʼni zoxiriy va botiniy maʼnolar uygʻunligida oʻrganilmagan edi. Zotan, badiiy asarning qimmatini muallifning dunyoni badiiy idrok etish, insonning odamiylik mohiyatini anglab yetish salohiyatiga qanchalik borlik boʻlsa, ilmiy asarlar yaratishda ham tadqiqotchining bunday imkoniyatlarga egaligi shunchalik muhim hisoblanadi. “Xizr chashmasi” kitobi muallifining izlanishlari shu jihatdan, ayniqsa, ibratlidir.

Navoiy merosining bugungi kundagi ahamiyati nihoyatda zalvorlidir. Bu haqida muallif shunday yozadi: **“Insoniyat yangi XXI asrda Navoiy singari ulugʻ mutafakkir ijodkorlarga yanada koʻproq muhtoj boʻladi. Chunki hozir insonning amaliy kashfiyoti behisob va hayratlanarli. Ammo insoniyat maʼnaviy kamolot jihatidan juda ham oldinga borgan emas, aksincha, Navoiy maʼnaviyati choʻqqisidan qaraydigan boʻlsak, anchagina orqaga qarab ketganimiz maʼlum boʻladi. Shuning uchun ham Navoiyga uygʻotish, Navoiy olamini kashf etishning zarurati va ahamiyati katta. Navoiydan insonga, hayotga muhabbat va sadoqatni oʻrganishimiz lozim. Alisher Navoiyda hamma narsa inson qalbi goʻzalligi, inson axloqi kamoloti nuqtai nazaridan olib qaraladi”**.

Xulosa qilib aytganda, bobokalonlarimizni anglash va tushunish bugungi kunning muhim vazifasi va bu ish avlodlar oldidagi kechiktirib boʻlmas burch hisoblanadi.



DILDORA IRGASHEVA,
“KUTUBXONA-AXBOROT FAOLIYATI” TAʼLIM YOʻNALISHI 3-BOSQICH TALABASI

Yangi o'zbekiston kelajagi – YOSHLAR QO'LIDA

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi, o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liqdir. Shu ma'noda O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimiz aholisining 60 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati 2 ta eng muhim yo'nalishda amalga oshirilmoqda. Birinchi yo'nalish, yoshlarga zamonaviy bilim berish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish esa yoshlar bandligini ta'minlashdir. Yoshlarning bilim va iqtidorini rivojlantirish maqsadida yangicha shakl va mazmundagi Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashgan maktablar tizimi yaratildi. Umuman barcha maktablarga e'tibor, o'qituvchilarga rag'bat va hurmat oshdi. Natijada yosh avlodning bilim olishiga intilishi yanada ortdi. Bundan tashqari mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Xususan bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq Xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan. Ko'rinib turibdiki, yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni alohida ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizning kelajagi bo'lmish yoshlarimizni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs, komil inson sifatida tarbiyalash masalasiga bugungi kunda ham o'ziga xos tarzda zamonaviy usullar asosida yondashilmoqda. Ularning barcha huquq va erkinliklari, imkoniyat va manfaatlarini, himoya qilishda tashkiliy-huquqiy asoslar zamon bilan hamnafas takomillashib bormoqda.

Yoshlarning bilim olish huquqini ta'limda ta'minlanganligi, yoshlarimizga ko'rsatiladigan juda katta e'tibor ertaga ulkan yutuq va natijalarni beradi. Shu sababli ularga ko'plab qulay sharoitlar-u imtiyozlar berilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida, "Yoshlar kelajagimiz" jamg'armasi tuzilib, yoshlar biznes tashabbuslarini g'oya va loyihalarini amalga oshirishlari uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz miqdorda imtiyozli kreditlar va lizing xizmatlari ko'rsatish hamda dastur doirasida ajratilayotgan kreditlar miqdorining 50 foizidan oshmagan miqdorda kafilliklar berish kabi imtiyozlarni amalga oshirildi.

Ayniqsa, qizlarning yanada bilimli bo'lishlari uchun Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasiga xotin-qizlarni o'qishga qabul qilish uchun 30 foiz maqsadli kvota ajratish masalasi ko'tarilgan bo'lsa, endilikda Ichki ishlar organlari xodimlari farzandlariga Davlat oliy talim muassasalari hamda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Milliy gvardiyasi va Davlat bojxona qo'mitasining oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozlar belgilandi. Yana oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga o'qishga kirish, shuningdek bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishni ko'chirish va qayta tiklash uchun hujjatlarini topshirish jarayoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy veb sayti orqali amalga oshirilishi ham biz yoshlar uchun yaratilgan eng maqbul imkoniyatdir. Bu kabi imkoniyatlar biz yoshlarning bilimli ma'rifatli bo'lishlarimiz uchun albatta.

Demak, mamlakatimizda yoshlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashga, yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda, davlat organlari hamda boshqa tashkilotlar mas'uliyatini kuchaytirishga, ushbu sohada sog'lom barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda biz yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar juda ko'pligini ko'rib bormoqdaman. Shu jumladan bu kabi imkoniyatlardan unumli foydalanib, sport, fan, IT, IQ hamda madaniyat va san'at sohaslarida, ko'plab yutuqlarga erishib, yurtini rivojlantirayotgan yoshlar juda ko'p. Shulardan 3 yilda 4001 nafar yoshlar sportdagi yutuqlari uchun imtiyoz asosida OTMlarga o'qishga kirishgan. "Yosh kitobxon" tanlovida yutgan o'quvchilarga esa avtomobil sovg'a qilinishi kishini quvontiradi. Undan tashqari o'zim tahsil olayotgan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining "Madaniyat va san'at sohasi menejmenti" 1-kursda tahsil olayotgan, samarqandlik, 18 yoshli Zohidjon Jumanazarov IQ bo'yicha 200 ball to'plab, dunyo rekordini o'rnatdi. Shunga o'xshash tengdoshlarimizning ko'pligi barchani quvontiradi. Yoshlarning bilimli va zamon talablariga to'la mos insonlar bo'lib yetishishda axborot texnologiyalari va til bilishning ahamiyati naqadar muhim ekanini alohida ta'kidlash lozim.

Davlatimiz tomonidan mana shu sohalar rivojiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada turli qonun, qarorlar qabul qilingan. Jumladan, "Xalqaro IT sertifikatlariga ega yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi, qaror qabul qilinganligi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Qarordan ko'zlangan maqsad, yoshlarni o'qitish va ular Xalqaro IT sertifikatlarini olishlari uchun 50 foizgacha bo'lgan xarajatni qoplash tizimini joriy etishdir. Bugungi kunda biz kabi yoshlar xalqaro sertifikatlar B1 C1 C2 kabilarni qo'lga kiritishmoqda. Bu ularning yuksak salohiyatidan hamda harakatchanligidan dalolat beradi. Undan tashqari xorijiy oliy ta'lim muassasalaridan, o'zimizdagi oliy o'quv yurtlariga o'qishini ko'chirish, test jarayonlari bir vaqtning o'zida 5 ta OTMdagi bilimni sinab ko'rishi



Zarina NURULLAYEVA,
“Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabasi

masalalari bizlarga berilayotgan imkoniyatlarning isbotidir.

Albatta bu kunlarni asrlar davomida yoshlarimiz orzu qilgan. Jumladan, jadidlarimizdan Mahmudxo'ja Behbudiy millat taraqqiyoti va istiqboli, Turkistonning kelajagi haqida o'ylar ekan: "Xalqni jaholat va nodonlik erksizlik va qashshoqlik botqog'idan qutqarib olishning birdan bir yo'li – ilm ma'rifatli bo'lishdir" - degan xulosaga kelgan edi. Behbudiy xalqdan mablag' yig'ib o'qishga, ilmga rag'batli bo'lgan, ammo ota-onasining qurbi yetmaydigan Turkiston yoshlarini chet el dorilfununlariga yuborib o'qitib, millatning rivoji va istiqloli uchun zarur bo'lgan muhandis va muallimlarga Yevropa bozorlarida savdo-sotiq qiladigan, xorijliklar tilini biladigan zamonaviy ilmiy xodimlarga ega bo'lish orqali yurt taraqqiyotini yulsaltirish g'oyasini ilgari surgan.

Albatta, ularning qilgan sa'y harakatlari-yu mashaqqatli mehnatlari tufayli biz yoshlar ham xuddi ularga o'xshashga harakat qilaylik. Zero bizga barcha shart-sharoitlar yetarlicha imkoniyatlar berilgan. Har bir jamiyatning unda yashayotgan insonlarning taqdiri va kelajagi albatta davlatlarning yetakchi kuchlari hisoblanmish yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan bir muhim masala – bu yoshlarning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat bilan ularning qalbidagi doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya, hisobidan" - deb ta'kidlab o'tgan. Shuning uchun har bir ota-ona, har bir xonadon, har bir mahalla bugungi kunda farzandlarimiz ta'lim-tarbiyasini eng asosiy vazifa sifatida bo'lib, yoshlarni xalqimizga yot va yangi avlod ongi uchun zararli bo'lgan salbiy ta'sirlardan himoya qilish, millat va davlat taraqqiyotini dunyo hamjamiyatiga ko'rsatishga qodir bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash ham qarar ham farzdir. Zero, inson hayoti odob-axloq ta'lim-tarbiya bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda bizning nafaqat ta'lim-tarbiyamiz balki olayotgan bilimimiz ham katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, men yurtimizning har doim yuksalishini, gullab-yashnashini, 10 ta eng rivojlangan davlatlar qatorida ko'rishni xohlayman va qo'limdan kelganicha o'z hissamni qo'shaman. Biz yoshlar Amir Temur, Alisher Navoiy, Cho'lpon avlodlarimiz. Ularga munosib farzand bo'lish biz yoshlarning burchimizdir. O'ylab qarasa, ularning davrida bizga yaratilgan sharoitlarning birortasi ham bo'lmagan. Shunga qaramasdan el-u yurt, butun dunyo taniydigan inson bo'lishgan. Hozirda ham ularning ezuq nomlari dillarda, tillarda yangrab kelmoqda. Shunday ekan, biz yoshlar ham ota-bobolarimiz yo'lini davom ettiraylik. Zero, vatanimizni rivoj topishi ham, zavolga yuz tutishi ham bizning qo'limizda. Aziz yoshlar! Hech qachon bilim olishdan to'xtamaylik. Doimo orzularimiz sari olg'a yuraylik, ulardan voz kechmaylik. Charchaganimizda maqsadlarimizni o'ylaylik. Doimo ezuq ishlar qilishga harakat qilaylik. Sabrli, shijoatli, dovyurak bo'laylik. Vatanimizga munosib farzand bo'laylik. Zero, Yangi O'zbekiston kelajagi – bizni qo'limizda!

O'zbek zamonaviy Kinematografiyasining bugungi kunida o'zining shaxsiy tamoiiliga ega bo'lgan, kasbiy prinsiplari boshqa rejissyorlardan ajralib turuvchi Yolqin To'ychiyev so'nggi yillarda turli qiziqarli mavzu va janrlarga qo'l urdi. Uning filmlari g'oya va aktualligi bilan boshqa badiy filmlardan ajralib turadi. Yolqin To'ychiyev film suratga olishda nafaqat rejissor balki, dramaturg sifatida ham o'zining mohirona qalamiga ega. "Telba", "Ilova" kabi filmlarida ssenarist va rejissor sifatida tomoshabinlar qalbidan joy olgan. Asarlarida aytmochi bo'lgan go'yaning dolzarbligi, uning o'ziga xos yondashuv orqali talqin etishi, qahramonlar xarakterini ochib berishi, voqea va hodisaga munosabati insonni chuqur o'yga solib, tomoshabinni teran fikrlashga undaydi.

REJISSOR USLUBINING FILMDA NOMOYON BO'LISHI

Rejissorning boshqa kinoijodkorlardan o'zga-chi jihati shundaki u yaratgan filmlardagi topilmalar, o'xshatishlar va ramziy elementlar boshqa hech bir asarlarda qayta takrorlanmaydi. Bunga yaqqol misol tariqasida 2020-yilda suratga olingan "Faridaning 2000 qo'shig'i" filmi efir yuzini ko'rganda uzoq muhokamalar markazida bo'ldi.

Ma'lumot o'rinda "Faridaning 2000 qo'shig'i" filmi 1920-yillar xonliklarning tugatilishi davrida odamlarning ijtimoiy turmush tarzi urf-odatlarini o'zbek milliy qadryatlari, jamiyatdagi tabaqalanish, ayniqsa o'sha davrdagi siyosat yaqqol ko'rsatib berilgan.

Filmda dodxoning to'rt xotini bir uyda yashashi ularning qay tarzda hayot kechirishi va nima sababdan bir umr kundoshlik balosiga ko'nib yashashlari, ayollarning qadr-qimmatlari

alamlari bilan uzoq vaqt davomida qaynab-pishib yashayotganlarini, sumalakning uzoq qaynashiga qiyoslaydi. Ayniqsa Robiyaning gulhan atrofida lazgiga o'ynashi tomoshanlarning qalbini jumbushga keltiradi, aynan lazgining yaralishi ham ming dard alamli raqs ekanligini yaxshi bilamiz. Badiiy filمنىng yaratilishida operatorning roli juda katta. Bir kadr orqali 3ta voeqani ko'satib berishi, boshqa bir kadrda esa Faridaning salom berib kadrda kirib kelishi va kadrda Robiyaning chiqib ketishining o'zida ham anchagina ramziy ma'no bor.

Film qahramonlarining bir-biriga o'xshamagan xarakterga ega. Dodho o'ta or-nomusli, bepushtligi tufayli odamlarning turli g'iybatu mish-mishlaridan uzoqda bo'lish uchun kimsasiz tog' yon bag'rlarida toki u farzndli bo'lmaguncha



haqida so'z borib film voeqalari tushunarsiz bo'lgan joylari mungli va dardli qo'shiqlar bilan ifodalab berilgan.

Filmning kirish qismi Faridaning aravada Buxoro amirligidan kundoshlar yashaydigan tevarak atrof tog' bilan o'ralgan hovliga kirib kelishdan boshlanadi va aynan shu vaqtdan boshlab oilaning tinchligiga putur yetadi. Xotinlarining yor-yor aytib o'z erini o'zga ayolga berishini bu ayol qismatidagi eng og'ir musibatning biridir.

Rejissor oiladagi ichki siyosatni birgina ovqatlanish sahnasi orqali tasvirlab bergan. Lagandagi oshga avval er undan so'ng 4 xotinning bir paytda qo'l uzatishi bu harakat bir xil tarzda davom etishi oiladagi intizom juda qattiq ekanligini bilish mumkin, biroq asarda Robiya obrazini mohirona ijro etgan aktrisa Yulduz Rajabova eriga nisbatan o'tkir nigohlari va hatti-harakatlari bilan bu intizomga rioya qilmaydigan yagona ayoligini isbotlaydi. Shu kundan boshlab, filmda voqelar rivoji boshlanib ichki nizolar yuzaga keladi. Odatda baxtli ayollar quyosh yorug'ida qoshlariga o'sma qo'yishadi asarda esa kundoshlar yarmida tunda qorong'uda qo'yishadi. Bu kadr orqali rejissyor ayollarning baxtiyor emasligini, ularning nigohlari orqali tomoshabinga yetkazadi. Rejissorning yutug'i ham shundaki ramziy ma'noda keladigan oddiy elementlarni topib, o'z o'rinda kerakli darajada ishlata oladi. Bunga yaqqol xotinlarning bir qatorga tizilib tog'orada sochini yuvish sahnasidir.

E'tibor qaratadigan bo'lsak, kundoshlar yoshi va bu oilaga kelishi jihatdan ketma-ketlikda o'tirib cho'michni Husniya Robiyaga, Robiya Mahfiratga, Mahfirat esa Faridaga uzatadi. Farida o'rindan turib ketganligi uchun cho'michni yana qaytarib Robiyaga uzatadi. Bundan bilsa bo'ladiki, ular o'z baxtlarini bir-birlariga berganligi, ammo Faridaga bu baxt kerak emasligi, u bunday tizimda yashashni istamayotganidan dalolatdir. Tomoshabinlarda savol tug'ulishi mumkin buncha xotin nega kerak? Bunga tog'dan keladigan alla sasidan bilsa bo'adiki bu uyda hech qachon alla aytilmagan. Filmning g'oyasi ham shundaki, odamzodning yashashdan birdan bir maqsadi o'zidan merosxo'r, davomchi qoldirishdir. Dodxohning maqsadi ham aynan shu edi.

Filmda o'zbek milliy qadryatlariga ham alohida ham e'tibor qaratilgan. Sumalak pishirish sahnasi orqali ayollar o'z dardu-hasratlari

qayta-qayta uylanishga ahd qilgan. To'ng'ich xotini Husniya juda sokin va mehribon. Go'yo uni o'zidan keyin kelgan kundoshlariga onalardak mehribonchilik qiladi, biroq ichidagi rashk azobini uy yumushlari bilan chalg'ib isyonini sukunat bilan yengadi. Mahfirat esa bu vaziyatdaga umuman beparvo bo'ladi. Chunki uning dardi er emas balki, yoshlikdan yetim qolib, yolg'iz bolaligini qumsab yashaydi. Rejissyor qahramonni yolg'izlatib qo'ymay unga doim ergashib yuradigan kuchukni hamroh qilib qo'yadi. Farida esa yuzaga keladigan muammolarni ziddiyatlarni sababchisi bo'lib, o'zi jimgina aybsizdek kuzatib turadigan ayoldir.

Robiya obrazida yana bir bor alohida to'xtalsak. Eriga nisbatan xissiyotlarni yashirib o'tirmaydi, ochiqchasiga jang qiladi va u bir narsadan qo'rqardi. Filmning 3/1 qismini ko'rib, Husniyani tomoshabin to'ng'ich xotin deb o'ylaydi. Aslida Dodho g'orda ham kishanlab qo'ygan Xayriniso ismli xotini bo'ladi. Uni bu tarzda olib o'tirishiga bir paytlar Robiya, Farida kabi kundosh bo'lib kelganda Xayriniso uni rashk sababli pichoqlaydi. Bu ikkala qahramon Robiya va Farida obrazlarining xarakteriga alohida e'tibor qaratsak, bir-biriga teskari Robiya ichidagi tug'yonini ochiqchasiga ko'rsatib, jang qiladi Farida esa aksi.

Vaqt o'tib Farida o'zga kishidan xomlador ekanligini bilgan Dodho barchasiga taslim bo'lib, ayollar ixtiyorini o'zlariga beradi. O'zi esa, Dodho bo'lib ishlagan amirlik tomon mardonavor yo'lga otlanadi. Biroq film yakunida Robiyaning qaytib kelishi asarning kulminatsion nuqtasi bo'lgan. Biz yana bir bor tarixga nazar solar ekanmiz, o'sha davrda davlat sirini sotgan qancha xorazmlik ayollar bo'lgan. Robiya ham Dodhoga nisbatan alami borligi va undan o'ch olish uchun bolsheviklarni boshlab keladi. Dodhoni otib o'ldirib, go'yo o'sha xorazmlik ayollar safida bo'lgandek. Tomoshabinda savol tug'ulishi mumkin. Nega film nomi "Faridaning 2000 qo'shig'i" odamlar orasida "ichimda mingta dardim bor" degan ibora yuradi? Film kirish qismida Farida o'zining darli qo'shig'i bilan boshlab beradi va bu dard-alam ularda ikki karra bo'ladi.

Ushbu film bir qancha festivallarda g'olib bo'lib o'zbek kinosi hayotida mana shunday oltin fondan o'rin olgan haqiqiy san'at durdonasi sifatida kelgusi avlod uchun milliy ufr-odatlarimiz, qadryatlarimiz, o'zbek mentalitetining saqlanib qolishi uchun katta xizmat qiladi.

ASLIDDIN QOSIMOV

USHBU MAQOLA “SAN’ATSHUNOSLIK” KAFEDRASI PROFESSORI MUHABBAT TO’LAXO’JAYEVANING ILMIY RAHBARLIGI YORDAMIDA TAYYORLANDI.



Oqil ABDUBARNOYEV

Navro'z bayramida

Hech ham to'lmas ko'ngil nimadir izlar,
Bayraming ko'rdim-u, qilganim havas –
Raqsga tushishar bir necha qizlar,
Boshida gulchambar, egnida atlas...

Tush deb o'ylagandim, tush emas ekan,
Hayratdan hayqirib keldi kuylagim.
Va so'ngra otilib turib o'rnimdan,
Qizlarga qo'shilib keldi o'ynagim.

O'ynagim kelar-u, o'ynolmay halak,
O'z holimni ko'rib, yig'laganim bor.
Vujudimni ezar yaltiroq ko'ylak,
Na egnimda chopon, na bir do'ppim bor.

Bir yoqda botirlar toshlar ko'targan,
Kimlardir kurashga qo'yishgan ixlos.
Bobolarim kuchi tog'ni ag'dargan,
Mening kuchim yetar qalamga, xolos.

Qaltiroq qo'llarim suyanchiq izlar,
Bu yorug' olamda qilganim havas –
Raqsga tushishar bahoroy qizlar,
Boshida gulchambar, egnida atlas...

Ko'klam iforidan tarqab ketar g'am,
Qancha vaqtdan beri shuni kutardik.
Yaxshiyam bor ekan mana shu bayram,
Bo'lmasa atlaslar ko'rmay o'tardik.



NARGIZA SHODMONOVA,
"MADANIYAT
VA SAN'AT
MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH
VA BOSHQARISH"
TA'LIM YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI

Doim yonimdasiz

Yuz o'girsas do'st-u yorim,
Ko'kni tutsa oh-u zorim,
Bitta munis mehribonim,
Onam doim yonimdasiz.

Tikon kirsas tovonimga,
Dunyo tordek jahonimga,
Chidab yaxshi yomonimga,
Onam doim yonimdasiz.

Gohi yashnab, gohi so'lsam,
Gohi yer, gohi oydek to'lsam,
Gohi shoh, gohi gado bo'lsam,
Onam doim yonimdasiz.

Dil so'zlarim ko'chdi she'rga,
Doim bo'ling menla birga,
Poyingiz teng jannatlarga,
Onam doim yonimdasiz.



Amriddin SHOMURODOV,
"Madaniyat va san'at
menejmenti"
ta'lim yo'nalishi sirtqi
3-bosqich talabasi

Onamjon

Sizga mehrim buyuk onajon,
To'lqin urib sohildan oshdi.
Omon bo'ling turguncha jahon,
Tuyg'ularim qalbidan toshdi.
Beg'uborsiz, ko'ngli pok inson,
Onajonim, jonim onajon!

Siz borsizki, yo'q menda armon,
Qalbi quyosh, mehri bir jahon.
Borlig'imsiz, har nedan ortiq,
Men yulduzman, siz esa osmon.
Turing mayli, turguncha jahon,
Onajonim, jonim onajon!

Kasal bo'lsam, boshda parvonam,
Butun olam ichra yagonam.
Boyligimsiz eng aziz odam,
Xazinalar ichra durdonam.
Alloh sizni saqlasin omon,
Onajonim, jonim onajon!

Davlatim dadam

Bu dunyoda topganim, baxtim dadam,
Sizni rozi qilmoqlik ahdim dadam,
Siz bo'lsangiz tashlayman dadil qadam,
Valine'mat davlatim dadam!

Voyaga yetkazgan ming bir zahmatda,
Hech tinim bilmagan halol mehnatda,
Orzuyim toj kiydirish sizga jannatda,
Valine'mat davlatim dadam!

Qayerda bo'lmayin duo qilguvchi,
Eng sarasin menga ravo ko'rguvchi,
Betob bo'lsam menga shifo so'rguvchi,
Valine'mat davlatim dadam!

Siz bo'lsangiz kerakmas menga toj-u taxt,
Baxtinga bo'ling doim sog'-u salomat,
Yonimda borligingiz o'zi bir ne'mat,
Valine'mat davlatim dadam!

Alloh rozi bo'lsin sizdan dadajon,
Onam bilan roxatim ko'ring har qachon,
Hayotimda uchragan eng yaxshi inson,
Valine'mat davlatim dadam!



Ravshan TEMIROV,
"San'at va
madaniyat
menejmenti"
ta'lim yo'nalishi
1-bosqich talabasi

Ustozlarga...

Robot yasaganlar daho emishlar,
Daholar oldida boshim egaman,
O'sha daholarni daho qilgan kim?
Ustozlar oldida men tiz cho'kaman.

Jajji qadamlarin tashlab bolakay,
Maktabga keladi yetti yoshida,
Uchragan kimsaga salom beradi,
Bilmaydi nelar bor hali boshida.

Bolakay taqdirin ilk chizgilarin,
Mohir qo'llar ila ustozlar chizar,
Jajji bolakayning jajji qo'llarin,
Qandaydir kasbga tayyorlab tuzar.

Oradan yillar ham o'tadi oqib,
Jajji bolakaylar ulg'ayib qolar,
Biri-birisidan aqlli bo'lib,
Barchasi o'ziga kasb tanlab olar.

Bir kun erishamiz orzumizga,
Ammo, sizga bo'lgan mehrimiz so'nmas,
Doim omon bo'ling, bizga, barchaga,
O'quvchi ustozni unutib qo'yimas.



Mirjalol MIRSAVLATOV,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil
etish va boshqarish"
ta'lim yo'nalishi
2-bosqich talabasi





Bugungi globallashuv davrida hayotimizga fan, texnika yangiliklari shiddat bilan kirib kelgan bir paytda, yuksak saviyali tarbiyaviy ahamiyatga ega hamda ma'naviy ozuqa bera oladigan filmlarga bo'lgan talab va ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Kino ancha yillardan buyon rivojlanib kelmoqda. Misol uchun, "O'tov", "Parizod", "Kechikkan hayot", "Chashma", "Aldangan ayol" kabi filmlar.



Kino SAN'ATMI

yoki SANOAT?



KOMILA AKBAROVA,
"KINO SAN'ATI TANQIDI
VA TAHLILI" YO'NALISHI
2-BOSQICH TALABASI

Kino sintez san'at hisoblanadi. Ya'ni tasviriy san'at, adabiyot, teatr va musiqa kabi bir muncha sohalar kiradi. Shuning uchun ham kino san'at deb ataladi.

Kino insonni yig'latishi, kuldirishi, inson ruhiyatiga ta'sir etishi mumkin. Shu o'rinda aytish joizki, Stiven Spilbergning shunday so'zlari bor edi: **"Kino-kuldirishi, qo'rqitish va larzaga solishni hammadan ko'proq eplaydi".**

Kino cheksiz ma'no-mazmun beradi. Kino haqida ko'p gapirish shart emas. Sababi kino san'ati boshqa san'at turlariga nisbatan juda rivojlangan hamda hozirda yana ham ommalashmoqda. Bunga asosiy sabab, oxirgi yillarda yurtboshimiz tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar. Eslatib o'tish joizki, yurtboshimiz tomonidan "IPAK YO'LI DURDONASI" Toshkent Xalqaro Kinofestivali 2021-yilda qayta tiklandi va har yili o'tkazilishi belgilandi. Festivalda 50 dan ortiq mamlakatlardan 300 dan ziyod san'at ustalari, jahon kino yulduzlari ishtirok etishdi. Yana bir quvonarli tomoni festival doirasida juda ko'p dasturlar ishlab chiqildi. Shu jumladan, kino besh kunda dasturi orqali yosh rejissorlarimiz o'z iste'dodlarini namoyish etishadi, yangi tajribalar maydoni va shu iste'dodlari orqali turli yutuqlarga erishishmoqda.

O'tgan yili festival doirasida san'atimiz darg'alaridan biri bo'lmish Shuxrat Abbosov xotirasiga yodgorlik o'rnatilgan bo'lsa, bu yil Xorazm shaxrida Xudoybergan Devonov xotirasini adabiy lashtirish uchun Xudoybergan Devonov kinoteatri ochildi. O'zbek dublyaj san'ati 85 yoshda nomi ostida turli tadbirlar tashkil etildi. "Dublyaj san'ati tarixi" nomli kitob taqdimoti hamda o'zbek dublyajiga oid eksponatlar jamlangan dublyaji san'ati muzeyi ochilishi bo'lib o'tdi. Bu sayi-haralatlarning barchasi albatta

kinoning yanada rivojlanishi uchun. Asta-sekinlik bilan "O'zbekfilm"lari ham jahon bozorlarida namoyish etilmoqda shu bilan birga turli hil jahon mukofotlarini qo'lga kiritishmoqda. "Ilhaq", "101-reys", "Choy", "Yakshanba", "Faridaning 2000 ming qo'shiqi" kabi filmlar shular jumlasidandir. Bu albatta bizning yutuqimiz.

Tanganing ikkinchi tomoni bo'lganidek bizning ham og'riqli nuqtalarimiz bor. Ana endi shular haqida so'z yuritsak. Bular albatta hozirgi kundagi son-sanoqsiz seriyalardan tashkil topgan seriallarimiz, ba'zi filmlarimiz va tok-shoularimiz. To'g'ri ko'rishga arziydigan seriallarimiz ham mavjud. Ammo qo'l bilan sanasak sanoqli. Mening fikrimcha e'tiborimizni tortayotgan film, seriallarni saralashimiz kerak. Bunga asosiy sabablardan biri eng qummatbaho narsamizni, ya'ni, vaqtimizni sarflaymiz. Kino ekan deb ko'raverish yaramaydi.

Bilamizki, hozirgi kunda kino ixlosmandlarning aksariyatini yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun davlat va xususiy kanallarda, kinoteatrlardagi filmlar va seriallarni yuqori qatlam ham saralasa maqsadga muvofiq bo'lar edi. To'g'ri ijodkor insonga erkinlik kerak, ammo barchasi me'yorida bo'lsa yaxshi bo'lar edi. Kassabop, yoshlarbop deb har xil jamiyatimizga zid bo'lgan film va seriallarni targ'ib etish kerak emas. Ammo ba'zi bir nafsiga qul insonlar kassabop deb shaxvoniylik, zo'ravonlik va vahshiylik aks etgan filmlarni yurtimizga olib kirib targ'ib etishmoqda. To'g'ri, biz turli millat va elatli davlatimiz. Ular uchun bunday filmlar oddiy hol. Lekin, bizga bunday filmlar kerak emas. Gap isbotsiz bo'lmasin, misol uchun "Osmonlardan balandda", "Mutant qo'zichoq", "Do'stlar

o'yini yoxud o'z xohishlaringizdan qo'rqing" filmlari.

"Do'stlar o'yini yoxud o'z xohishlaringizdan qo'rqing" filmini tahlil qiladigan bo'lsak. Film syujeti haqida qisqacha to'xtalsam. Film uch nafar qiz va bir yigitning do'stligi hamda ularning kundalik hayoti haqida. Film boshida ular qandaydir g'ayrioddiy o'yin sotib olishadi. O'yin shartlari yolg'on gapirmasdan savollarga javob berish edi. Shu o'yin orqali bu to'rtlikning barcha sirlari ochilib ketadi. Ya'ni bir qizning barchadan berkitib giyohvandlik iste'mol qilishi, ikkinchisi yonidagi dugonasining yigit bilan pinhona uchrashib yurishi va hokozlar bilan boshlanadi. Film davomida o'yinni sotib olgan qizning shubhali g'oyib bo'lishi uni shu to'rtlikning biri giyohvand modda ta'sirida o'ldirganligi, ammo eslay olmasligi kabi voqealari sodir boladi. Film yakunida esa ularning barchasi o'yinni sotib olgan qizning tushida kechgan bo'ladi. Bu barchasi haqiqat bo'lishi mumkunligi ya'ni inson o'z nafsiga erk bermasligi, o'z-o'ziga egalik, hokimlik qilishi kerakligi bilan ogohlantiriladi.

Yuqorida aytib o'tganimdek, hozirgi kino ixlosmaandlarining aksariyatini yoshlar tashkil etadi.

Bu yoshlarbop deyilayotgan filmni ko'rgan yoshlarga qanday fikr keladi deb o'ylasiz? Axir hamma yoshlarimiz ham bizdek g'oyaning, filmning faqat yaxshi tomonini, biz ham bu axvolga tushmasligimiz kerak, - degan fikrga kelishmaydiku!? Balki ba'zi yoshlar hozir yengil hayotga o'rganayotgan bir paytda filmni ko'rib, "Bizga ham mumkin ekan ekranlarda ko'rsatishyaptiku, biz ham qilib ko'rsakchi", deb o'ylashlari ham mumkin. Shuning uchun bizga axloqsizlikni targ'ib etadigan filmlar o'rniga, yaqin yillardan ishlab chiqarilayotgan hujjatli, tarixiy yoki badiiy filmlardan "Cho'lpon-ezgulik qushi", "Abdulla Oripov", "Muqimiy", "O'zbek qizi" kabi yoshlarni ezgulikka, vatanparvarlikka, ilm olish uchun energiya beruvchi filmlarni efigra uzatish kerak. Chunki biz yoshlar hozirgi paytda kitoblarni kamdankam mutolaa qilamiz.

Ammo, film va seriallarni ko'rish uchun vaqtimiz hamda uyali aloqa vositalarimiz ham bor. Ushbu filmlardan kitobchalik bo'lmasa ham har holda ma'lumotlar olamiz. Bunday insonni ruhan boyotadigan, ma'naviyatiga ta'sir etuvchi filmlar teleekranlarimizda namoyish etiladi, lekin qaysi vaqtlarda?

- Agar kinotanqidchilar tomonidan tilga olinsa, albatta ko'tara olishmaydi. Lekin biz tanqidni ko'tara olmasak, kino san'ati hech ham rivojlana olmaydi. Nafaqat jahon filmlari balki, o'zimizning filmlarda ham kassabopligiga e'tibor kuchli edi. Oxirgi yillar davomida kino san'atimizda o'zgarishlar bo'ldi. Biroq, "xontaxta" filmlar hali-hamon mavjud. Misol tariqasida "Salom yanga", "Onasi o'pmagan kampir" kabilarni keltirishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan shunga o'xshash filmlar insonga nima beradi, deb emas, balki filmdan qancha daromad olar ekanman? - deb suratga olinmoqda. Filmni ko'rish u yoqda tursin, nomidan saviyasiz ekani ko'rinib turibdi. Mening fikrimcha, qachonki biz filmlarni san'at darajasida suratga olar ekanmiz sanoat o'zi rivojlanib, o'z eshiklarini ochadi. Shuning uchun turli xontaxta filmlarni to'xtatib, san'at darajasidagi filmlarni ko'paytirishimiz kerak.

Ehtirom

Onajon! Sizni xalqaro xotin-qizlar bayrami munosabati bilan chin dildan tabriklayman. Qalbingizda hamisha bahoriy kayfiyat hukm sursin. Dunyodagi jamiki ezgu niyatlarni sizga tilayman!

Mening jonkuyar mehribonim, doimo har qanday holatda ham o'zidan ko'ra farzandlarini o'ylaydigan kuyunchagim. Menga yurishni, turishni, gapirishni, hayotning oq-u qorasini tanishni o'rgatgan buyuk muallimim. Mening haqiqiy do'stim, chin yurakdan qayg'uradigan jannatim. Bugun sizga qalbmimdagi, aytolmagan gaplarimni aytmoqchiman... Onajon, siz borsiz hayotim nurli, siz borsiz qalbim hotirjam, siz borsiz men hali-hanuz bolaman. Onajon, siz meni jannatimsiz, sabr gulimsiz, ko'zlarimning nurisiz. Sizga qancha ta'rif bersam ham vasfingizga yetolmayman. Bizga bergan mehringiz, chiroyli tarbiyangiz va hayotni o'rgatganingiz uchun sizdan cheksiz minnatdorman.

Siz bergan tarbiya va mehringiz sabab, men bugun juda baxtliman, sizni borligingiz esa bu baxtimni yanada ziyoda qiladi. Onajon, siz dunyodagi eng yaxshi onasiz. Albatta, bu yorug' olamda barcha onalar yaxshi, lekin mening onam

tengsiz, mening onam bebaho. Bilib bilmay qilgan xatolarim va dilingizni noo'rin og'ritganim uchun meni kechiring, siz men uchun nimaiki qilgan bo'lsangiz, faqat menga yaxshi bo'lishi uchun qilgansiz, buning uchun sizdan behad minnatdorman.

Sizga dunyodagi eng ezgu niyatlarni tilayman. Hamisha baxt hamrohingiz bo'lsin, yuzingizdan tabassum arimasin. Biz farzandlaringizning rohatini ko'rib yuring, nabiralaringizning ham mehribon buvijonisi bo'lib yurish nasib etsin. Haj safarlariga borish nasib etsin. Bizni voyaga yetkazishda va ziyoli, yaxshi inson qilib tarbiyalalashda qo'llari qadoq bo'lgan, yuzlari nurligim, butun umrini biz farzandlari uchun baxshida etayotgan, munisim, sizga atalgan dil izhorimni she'r bilan yakunlayman:

**Bulutlar boshimda bo'lsa parvona,
Hatto oy-u quyosh bo'lsada nari,
Dunyoda aslida ALLOH yagona,
Insonlar ichida yagona ONA.**



**XAFIZA ALIBEKOVA,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH
VA BOSHQARISH” TA’LIM
YO’NALISHI 2-BOSQICH
TALABASI**

“ALO” so‘zining
kelib chiqishi

**MADINA IKROMOVA,
“MADANIYAT VA SAN’AT
MUASSASALARINI
TASHKIL ETISH VA
BOSHQARISH” TA’LIM
YO’NALISHI 2-BOSQICH
TALABASI**



Aleksandr Grem Bell telefonni ixtiro qildi va ilk telefon liniyasini sevgilisining uyiga o'rnatdi. Uning sevgilisining ismi Alessandra Lolitto Osvaldo edi. Grem Bell bir necha kun faqatgina sevgilisiga qo'ng'iroq qildi. Telefon jiringlaganda uzoq vaqt davomida "Alessandra Lolitto Osvaldo" dedi.

Biroz vaqt o'tgach, Grem Bell sevgilisining ismini qisqartirdi va "Ale, Lol, Os" – deb ayta boshladi. Ishlari rivojlandi va vaqt o'tishi bilan sevgilisining ismini yanada qisqartirdi: ALO.

Bell keyinchalik telefonga "ALO" deb javob bera boshladi. Bell shaharning ko'plab joylariga telefon liniyalarini o'rnatdi. Telefon jiringlaganda odamlar Bell kabi telefonga "ALO" – deya javob bera boshlashdi. Hozirgi kunda "ALO" so'zi butun dunyo bo'ylab qo'llanadi, lekin ko'pchilik "ALO"ning ma'nosini bilmasa yoki qiziqmasa kerak.



Bugri gilos

**KAMOLA BOTIROVA,
“ESTRADA AKTYORLIGI” TA’LIM YO’NALISHI
3-BOSQICH TALABASI**

Yozning qoq chillasida, quyosh qizdirib yotgan payt ko'zlarimga yaqqol tashlanib turgan hovlimizdagi gilosdan o'zim uzib yegim keldi. Juda katta daraxt, ammo bugri o'sgan edi. Dadam gilosning tagiga hovuzcha qurib bergan. Men esa shu hovuzning qirg'og'iga turib, gilos shoxiga osilib uzmoqchi bo'ldim. Sal pastrog'ida ham pishganlari bor edi, lekin tepasidagi giloslar katta-katta, qip-qizil va shunaqangi chiroyli ko'ringandi. Uni uzaman deb, shu hovuzning qirg'og'iga belim bilan yiqilib tushdim. Dadam nariroqda ish qilyapti. Qattiq yiqilganimdan yig'lab yuboray dedim-u befoyda, baribir dadam o'zimni so'kadi, – deb o'ylab dardim ichimda, indamay o'rnimdan turib, uyga kirib yotdim.

O'sha payt olti yosh edim. 7-sinfda o'qiyotgan kezlirim, suyaklarimda o'zgarish bo'ldi va hayotimizda ham... Rahmatli dadam o'sha gilosni arralatib tashlagandi. Mana o'sha voqeaga ham o'n yetti yil bo'libdi.

Men ham shu gilos daraxtidek bugri bo'ldim, lekin meni u daraxtdan farqim, faqat qaddimda emas, qalbmida ham bo'ldi... U egri emas bugri!

Ko'rgazma

Ekspositsiyada uch yuzdan
ortiq ijod namunalari

O'zbekiston Badiiy Akademiyasining markaziy zalida badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zolari: Aleksandr Andreevich Batikov, Valerie Aleksandrovich Kuznetsovlarning yubeley ko'rgazmalari tashkil qilindi. Ekspozitsiyada uch yuzdan ortiq rang tasvir, grafika, teatro dekoratsiyalari, kostyumlar, turli xil ijodiy ishlar o'rin olgan.

HASAN ABDUNAZAROV

A.Batikov - kino va teatr rassomi, rang tasvirchilar 1939-yil 26-aprelda Qozog'istonning Semipalatinsk shahrida tavallud topgan.

P. Benkov nomidagi Respublika rassomchilik bilim yurtida Qalamtasvir va rang tasvir bo'limida, Toshkent teatr va rassomlik institutining teatr va kino bo'limida, Moskva universitetining sirtqi qalamtasvir va rang tasvir bo'limida o'qigan. U stsenuograf va sahnalashtiruvchi rassom sifatida O'zbekiston va Rossiyada yuzdan ortiq spektakllarni sahnalashtiruvchi rassom sifatida faoliyat yuritgan. Grafik sifatida G'ofur G'ulom nashriyotida o'nga yaqin kitoblarni badiiy bezagan.

Ko'rgazmada uning rangtasvir akvarelda ishlangan sayohat qoralamalari, zamondoshlar portretlari, spektakllar uchun yaratilgan sahna maketlari va libos eskizlari plenerda chizgan tabiat manzaralari o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasida xizmati ko'rsatgan madaniyat xodimi, rassom Kuznetsov Valeriy



Aleksandrovich 1959-yil, 16-oktyabrda Toshkent shahrida tug'ilgan.

1941-yilda uning ota-onasi Rostovdan Toshkent shahriga ko'chib kelishgan. 1976-yili maktabni tamomlagandan so'ng 1978-1983 yillarda Toshkent politexnika institutida tahsil oldi. Sog'liqni saqlash loyihalash institutida qayta me'mor bo'lib ishladi. Planerga chiqib manzaralar yaratdi.

Rossiya-O'zbekiston madaniy hamkorligi loyihasi doirasida shaxsiy

ko'rgazma o'tkazgani uchun "Rassotrudnigestvo" Xalqaro Federal Agentligining MDH diplomi bilan, "O'zbekiston va Ukraina rassomlar nigohida" ko'rgazmasida ishtiroki uchun O'zbekiston badiiy akademiyasining diplomi bilan taqdirlangan, me'morchilik fanlari nomzodi, dotsent.

Ekspozitsiyada uning planerda chizgan tabiiy manzaralari, me'moriy yodgorliklar, naturmortlar, turli uslubdagi kubizm, absiraksionizm eksperimentlari o'rin olgan.

Muassis:

**O'zbekiston davlat san'at va
madaniyat instituti**

Bosh muharrir

Ma'rufjon YO'LDOSHEV



Tahrir hay'ati:

Sobirjon JUMAYEV

Hamdam ISMOILOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,

Mirzo Ulug'bek tumani,

Yalang'och mavzesi, 127 A uy.

Telefon: (71) 230-28-03.

(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;

nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.

Gazeta 1.04.2024-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda